

---

## TOSHLOQDA EHTIYOJMAND OILALARGA BEPUL BUG'DOY VA SOMON TARQATILMOQDA

Ayni kunda Toshloq tumanida g'alladan ko'tarilgan ulkan xirmon barakasidan hududdagi kam ta'minlangan, ehtiyojmand oilalarga 200 kilogramdan don va 20 donadan press somoni tarqatilayotgani aholini mamnun qilmoqda.

Bugun "Qumariq", "Obisiyo", "Jarqishloq" hamda "Qumqishloq" mahalla fuqarolar yig'inida yashovchi kam ta'minlangan, "Ayollar daftari" hamda "Yoshlar daftari"ga kiritilgan 60 nafar fuqarolarga bepul bug'doy va somon tarqatilib, ularga bir martalik takroriy ekin ekish uchun 20 sotixdan yer ajratildi. Tadbirda viloyat qishloq xo'jaligi boshqarmasi boshlig'i Abduqahhor Qodirov, tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda sektor rahbarlari ishtirok etdilar. Bunday savobli ishlar tumanning barcha hududlarida keng ko'lamda davom ettirilmoqda.

2023-06-21 13:16:55